o‘qituvchiga texnologiyadan foydalanishning oddiy "almashtirish" bosqichidan murakkab "qayta belgilash" bosqichigacha bo‘lgan yo‘lni aniq belgilab beradi. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarning passiv lug‘at boyligini (passive vocabulary) faol nutqiy zaxiraga (active vocabulary) aylantirish jarayonini tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Nation I.S.P. (2013). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge, Cambridge University Press.

(2). Puentedura R.R. (2010). SAMR: A brief introduction. Hippasus.

(3). Richards J.C., Rodgers T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

(4). Warschauer M. (2011). Learning in the Cloud: How Digital Tools Are Retraining Education. Teachers College Press.

(5). Shodmonova Sh.S. (2020). Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, "Fan va texnologiya”.

Isakov Zakirjon Soliyevich (Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)

ONA TILI DARSLARIDA SHE’RIY MATNLAR BILAN ISHLASHNING NAZARIY-AMALIY VA MA’RIFIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim ona tili darslarida she’riy matnlar bilan ishlashning nazariy, amaliy va ma’rifiy-ma’rifiy ahamiyati shaxsiy tajribalar asosida yoritishga harakat qilingan. She’riy matnlarning o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi o‘rni ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, she’r bilan ishlashning samarali metodlari va ularning ta’lim jarayonidagi qo‘llanishi bo‘yicha amaliy takliflar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *she’riy matn, nutqiy kompetensiya, nutq rivoji, estetik tarbiya, badiiy tafakkur, lingvistik tahlil, metodika, ifodali o‘qish, interpretatsiya, ma’naviyat, nutq fasohati.*

Исаков Закиржон Солиевич (доцент Кокандского государственного университета, кандидат филологических наук)

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ, ПРАКТИЧЕСКОЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАБОТЫ С ПОЭТИЧЕСКИМИ ТЕКСТАМИ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье на основе личного опыта предпринята попытка осветить теоретическое, практическое и педагогически-просветительское значение работы с поэтическими текстами на уроках родного языка в начальной школе. Научный анализируется роль поэтических текстов в развитии речевой компетенции учащихся, формировании эстетического вкуса и духовно-нравственном воспитании. Также даны практические рекомендации по эффективным методам работы с поэзией и их применению в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *поэтический текст, речевая компетенция, развитие речи, эстетическое образование, художественное мышление, лингвистический анализ, методология, выразительное чтение, интерпретация, духовность, красноречие.*

Isakov Zakirjon Soliyevich (Associate Professor at Kokand State University, Candidate of Philological Sciences)

THEORETICAL, PRACTICAL AND PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF WORKING WITH POETIC TEXTS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS

Annotation. *This article, drawing on personal experience, attempts to illuminate the theoretical, practical, and educational significance of working with poetry in native language lessons in primary school. It analyzes the role of poetry in developing students' verbal competence, aesthetic appreciation, and spiritual and moral education. Practical recommendations for effective methods of working with poetry and their application in the educational process are also provided.*

Keywords: *poetic text, speech competence, speech development, aesthetic education, artistic thinking, linguistic analysis, methodology, expressive reading, interpretation, spirituality, eloquence.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning fikrlash, nutqiy va estetik kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda ona tili fanining o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, she’riy matnlar o‘quvchilarning: til sezgirligini, obrazli fikrlashini, estetik didini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. She’r – bu nafaqat til hodisasi, balki ma’naviy-estetik fenomen bo‘lib, unda tilning barcha qatlamlari (fonetika, leksika, grammatika, stilistika) mujassamlashadi. She’riyatning inson ruhiyatiga ta’siri haqida ko‘plab allomalar fikr bildirgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy “She’r inson ruhiyatiga ta’sir etib, uni tarbiyalaydigan kuchli vositadir” [2;28-b.] deb, Alisher Navoiy “She’r dildan chiqib, dilga yetib boruvchi so‘z” [3;56-b.] ekanligini ta’kidlasa, Aristotel she’riyatni

tarixdan ko‘ra falsafiyroq [5;22-b.], deb baholaydi. Bu fikrlar she’rning nafaqat estetik, balki ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatini ham tasdiqlaydi, shu bois she’riy matnlar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. She’riy matnlarning nazariy asoslarini o‘rganishda badiiy nutqning o‘ziga xosligi, uning lingvistik va stilistik xususiyatlari alohida e’tiborga olingan. Xususan, Aristotel o‘zining “Poetika” asarida she’riyatni voqelikni umumlashtirib aks ettiruvchi san’at turi sifatida talqin qilib, uning bilish jarayonidagi o‘rnini asoslab bergan. Bu qarashlar keyingi davr tadqiqotlari uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sino asarlarida she’riy nutqning inson ruhiyatiga ta’siri, uning estetik va tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilgan. Ular she’rni nafaqat san’at, balki inson tafakkurini shakllantiruvchi vosita sifatida baholaydilar. O‘zbek adabiyotida esa Alisher Navoiy ijodi she’riy nutqning nazariy asoslarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi, uning asarlarida so‘zning ma’naviy qudrati, badiiy ifoda vositalarining imkoniyatlari chuqur tahlil etilgan [1;32-b.].

Zamonaviy tadqiqotlarda she’riy matn: lingvopoetik birlik, kommunikativ vosita, estetik kategoriya sifatida kompleks yondashuv asosida o‘rganilmoqda. She’riy matnlarni o‘rganish va o‘qitish masalasi ko‘plab tilshunos va metodist olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Tilshunoslikda badiiy matnni tahlil qilishga oid qarashlar: lingvistik yondashuv, stilistik yondashuv, semantik-pragmatik yondashuv asosida shakllangan [1;25+b.].

Metodik adabiyotlarda she’rni o‘qitish: ifodali o‘qish, tahliliy o‘qish, ijodiy yondashuv orqali amalga oshirilishi ta’kidlanadi. Ayrim tadqiqotlarda she’riy matn: nutq rivojlantiruvchi vosita, ma’naviy tarbiya manbayi, estetik did shakllantiruvchi omil sifatida qaraladi. Biroq mavjud tadqiqotlarda nazariy va amaliy jihatlarni kompleks holda yoritish yetarli darajada emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: tahliliy metod, qiyosiy metod, kuzatish va umumlashtirish, lingvometodik yondashuv.

Tadqiqot materiali sifatida maktab darsliklari, she’riy matnlar, pedagogik tajribalar asos qilib olindi.

Tahlil va natijalar.

1. She’riy matnning lingvistik xususiyatlari. She’riy matn oddiy matndan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi: ritmik tuzilish, qofiya tizimi, obrazlilik, emotsionallik. Bu xususiyatlar o‘quvchilarning tilni chuqurroq his etishiga yordam beradi.

2. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdagi roli. She’r bilan ishlash orqali o‘quvchilar: so‘z boyligini oshiradi, sinonim va antonimlarni o‘rganadi, nutq ifodaviyligini rivojlantiradi. Masalan, birgina she’r matni orqali: metafora, epitet, taqqoslash kabi vositalarni o‘rgatish mumkin. Natijada o‘quvchi nutqi: boy, obrazli, ta’sirchan bo‘ladi.

3. Ifodali o‘qish va uning ta’siri. Ifodali o‘qish: tovush madaniyatini rivojlantiradi, intonatsiyani to‘g‘ri qo‘llashga o‘rgatadi, matn mazmunini chuqur anglashga yordam beradi. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ifodali o‘qish bilan shug‘ullangan o‘quvchilar: tezroq fikr bildiradi, nutqi ravon bo‘ladi, sahnada o‘zini erkin tutadi.

4. Estetik va ma’naviy tarbiya. She’riy matnlar: vatanparvarlik, insonparvarlik, ezgulik kabi qadriyatlarni singdiradi. She’r orqali o‘quvchi: go‘zallikni his qiladi, hayotga estetik nigoh bilan qaraydi. Bu esa uning shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

5. Tahliliy yondashuvning ahamiyati. She’rni tahlil qilish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: mazmunni anglash, badiiy vositalarni aniqlash, g‘oyani ochish, muallif pozitsiyasini tushunish. Bu jarayon o‘quvchilarda: tanqidiy fikrlashni, mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

6. Interfaol metodlarning samaradorligi. Zamonaviy metodlar: “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Rol o‘ynash”, she’rni o‘rganishda samarali natija beradi. Natijada dars qiziqarli bo‘ladi, o‘quvchi faol ishtirok etadi, bilim mustahkamlanadi.

7. Muammoli jihatlar. Amaliyotda quyidagi muammolar kuzatiladi: she’rni yuzaki o‘qish, tahlil yetishmasligi, o‘quvchilarning passivligi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun metodik yondashuvni takomillashtirish zarur.

8. Natijaviylik ko‘rsatkichlari. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, she’riy matnlar bilan tizimli ishlash: nutq rivojini 25–30%ga oshiradi, lug‘at boyligini kengaytiradi, o‘quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. She’riy matnlarni o‘qitish nazariy jihatdan yetarlicha o‘rganilgan, ammo ularni amaliyotga tatbiq etishda kamchiliklar mavjud.

2. Amaliy tadqiqotlar interfaol metodlarning samaradorligini isbotlagan.
3. Ma'naviy jihat she'r o'qitishning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.
4. Zamonaviy ta'limda she'rni o'qitishga integrativ yondashuv talab etiladi.
5. She'riy matnlar ona tili ta'limining muhim komponentidir.
6. Ular nutq, tafakkur va ma'naviyatni rivojlantiradi.
7. Ifodali o'qish va tahliliy yondashuv asosiy metodlar hisoblanadi.

Takliflar: darsliklarda she'riy materiallar hajmini oshirish; interfaol metodlarni keng qo'llash; o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar yaratish; she'r asosida ijodiy topshiriqlarni ko'paytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Toshkent, 2010, 256-bet.
(2). Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2022, 320-bet.
(3). Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Toshkent, 2011, 256-bet.
(4). Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, "Sangzor", 2006, 92-bet.
(5). Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoyetikasi. Toshkent, "Fan", 2008, 160-bet.

Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich (Termiz davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori; E-mail: shomirzaevm@tersu.uz)

XALQ HUNARMANDCHILIGI ASOSIDA TALABALARNI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH

Annotatsiya: *Maqolada kashtachilik, zardo'zlik va kulolchilik kabi hunarlarni talabalarga o'rgatish masalalari, shuningdek milliy qadryatlarimizning talim va tarbiyadagi o'rni atroflicha tahlil qilingan bo'lib, ushbu kasbkorliklarni egallashlarida talabalarning estetik dunyoqarashi, tasavvuri va variativ yondashuvini rivojlantirishda ijodiy fikrlashlari muhim vosita ekanligi izchil, ketma -ketlik prinsipi asosida yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *talaba, ta'lim, tarbiya, kashtachilik, zarduzlik, kulolchilik, ijodiy, fikrlash, xalq hunarmandchiligi, milliy qadriyatlar, estetik tarbiya, STEAM yondashuvi, izchil, ketma-ket, samaradorlik.*

Шомирзаев Махматмурод Хурамович (Профессор Термезского государственного университета, доктор педагогических наук; E-mail:shomirzaevm@tersu.uz

РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ НАРОДНЫХ РЕМЁСЕЛ

Аннатация. *В статье всесторонне проанализированы вопросы обучения студентов таким ремёслам, как вышивка, золотое шитьё и гончарное дело, а также роль национальных ценностей в образовании и воспитании. Последовательно раскрывается, что творческое мышление является важным средством развития эстетического мировоззрения, воображения и вариативного подхода у студентов в процессе освоения этих ремёсел.*

Ключевые слова*: студент, образование, воспитание, вышивка, золотое шитьё, гончарное дело, творчество, мышление, народные ремёсла, национальные ценности, эстетическое воспитание, STEAM-подход, последовательность, системность, эффективность.*

Shomirzaev Makhmatmurod Khuramovich (Termez State University professor, doctor of Pedagogical Sciences; E-mail:shomirzaevm@tersu.uz

DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE THINKING THROUGH FOLK CRAFTS

Annotation. *The article thoroughly analyzes the issues of teaching crafts such as embroidery, goldwork, and pottery to students, as well as the role of national values in education and upbringing. It consistently highlights how creative thinking serves as an essential tool in developing students' aesthetic worldview, imagination, and a variative approach while mastering these crafts.*

Key words. *Student, education, upbringing, embroidery, goldwork, pottery, creativity, thinking, folk crafts, national values, aesthetic education, STEAM approach, consistency, sequence, effectiveness.*

Kirish: Bugungi globallashuv davrida milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarimizni asrab-avaylash va yosh avlod qalbida ijodiy fikrlashni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalq hunarmandchiligi esa nafaqat moddiy madaniyatimizning ajralmas qismi, balki ta'lim - tarbiya jarayonida estetik dunyoqarash va ijodiy salohiyatni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Xalqimizning boy tarixi, boy madaniyati, san'ati va hunarmandhilik an'analarini o'rganmasdan, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalab bo'lmaydi" [1]. Mazkur fikrlar zamirida yoshlarni milliy hunarlarni o'zlashtirishga yo'naltirish, ularning estetik